Materiallar to'plami · Conference Proceedings
"ZAMONAVIY TADQIQOTLAR VA BARQAROR RIVOJLANISH" respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi
04 August 2026
UDK 37
PEDAGOGIKA

XORIJIY VA MAHALLIY PEDAGOGIK TADQIQOTLARDA REFLEKTIV AMALIYOT KONSEPSIYASINING RIVOJLANISH BOSQICHLARI, NAZARIY YONDASHUVLAR TAHLILI VA ULARNING ZAMONAVIY TA'LIM TIZIMIDAGI AHAMIYATI

Nodirbek Ravshanbek o'g'li Nabijonov*
Andijon davlat chet tillari instituti tayanch doktoranti
✉ nabijonov9715@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada reflektiv amaliyot konsepsiyasining xorijiy va mahalliy pedagogik tadqiqotlardagi rivojlanish bosqichlari, asosiy nazariy yondashuvlar tahlil qilinadi. Tadqiqotda D.A.Shonning reflektiv amaliyotchi konsepsiyasi, J.Dyui, D.Kolb, G.Gibbs, J.Mezirov va boshqa olimlarning refleksiya nazariyasiga qo'shgan hissasi yoritiladi. Shuningdek, zamonaviy ta'lim tizimida reflektiv amaliyotning o'rni, uning pedagogik faoliyatdagi ahamiyati va amaliy qo'llanish imkoniyatlari, jumladan O'zbekiston ta'lim tizimidagi ilg'or tajribalar asosida tahlil etiladi.

Kalit so'zlar

reflektiv amaliyot, pedagogik refleksiya, metakognitsiya, reflektiv modellar, kasbiy rivojlanish, zamonaviy ta'lim.

DOI: 10.5281/zenodo.21743614

KIRISH

Zamonaviy ta'lim tizimining asosiy maqsadi nafaqat bilim va malakalarni shakllantirish, balki mustaqil fikrlaydigan, o'z faoliyatini tahlil qila oladigan, doimiy o'z ustida ishlashga intiladigan shaxsni tarbiyalashdir. Aynan shu jarayonda reflektiv amaliyot konsepsiyasi alohida ahamiyat kasb etadi. Reflektiv faoliyat orqali o'quvchi yoki pedagog o'zining bilish jarayonlari, qaror qabul qilishdagi asoslari, xatolari va yutuqlarini ongli tarzda tahlil qiladi.

So'nggi yillarda xorijiy va mahalliy pedagogik tadqiqotlarda reflektiv amaliyotga bo'lgan qiziqish sezilarli darajada oshdi. Finlyandiya, AQSh, Buyuk Britaniya, Germaniya kabi rivojlangan davlatlarda refleksiya pedagog kadrlarning kasbiy o'sishida asosiy komponent sifatida qaralib, o'quv dasturlari, seminarlar, kundaliklar va baholash mezonlariga kiritilgan. O'zbekiston ta'lim tizimida ham ushbu yo'nalishdagi ishlar bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etilmoqda.

Mazkur maqolaning maqsadi reflektiv amaliyot konsepsiyasining tarixiy rivojlanish bosqichlarini, asosiy nazariy yondashuvlarni tizimli tahlil qilish va ularning zamonaviy ta'lim tizimidagi ahamiyatini ilmiy asosda yoritishdan iborat.

Reflektiv amaliyot konsepsiyasining nazariy asoslari

Refleksiya oddiy o'zini kuzatish emas, balki metashuuriy monitoring tizimi bo'lib, u ong faoliyatining yuqori darajali tahliliy bosqichini tashkil etadi. Zamonaviy kognitiv psixologiyada bu holat metakognitsiya deb yuritiladi. J.Flavell ta'kidlaganidek, metakognitsiya bilim ustidan nazorat qilish, uni anglash va strategik boshqarish qobiliyatidir. Refleksiya aynan mana shu nazariyaga tayangan holda shaxsda bilimga nisbatan mustaqil yondashuvni shakllantiradi.

Reflektiv faoliyat o‘z mohiyatiga ko‘ra shaxsda metakognitiv monitoring tizimini shakllantiradi. Bu tizim orqali o‘quvchi o‘z o‘qish jarayonining strukturaviy bosqichlarini tahlil qiladi: maqsad qo‘yish, rejalashtirish, bajarish, baholash va refleksiya. Shunday qilib, refleksiya faqat o‘z-o‘zini tahlil qilish emas, balki faoliyatni o‘zgartirish vositasi sifatida ham namoyon bo‘ladi. D.B.Elkonin ta’kidlaganidek, refleksiya o‘tmishdagi faoliyatni emas, balki kelajakdagi harakatlarni ongli tarzda boshqarish vositasidir.

Reflektiv amaliyotning rivojlanish bosqichlari

Reflektiv amaliyot konsepsiyasining rivojlanishini bir necha bosqichga bo‘lib o‘rganish mumkin.

Birinchi bosqich falsafiy-pedagogik asoslarning shakllanishi bo‘lib, XX asr boshlariga to‘g‘ri keladi. Bu bosqichda J.Dyui refleksiv fikrlash nazariyasini ishlab chiqdi. Dyui refleksiyani faol, qat'iy va ehtiyotkorlik bilan o‘rganish deb ta'riflab, uni ta’lim jarayonining ajralmas qismi sifatida belgiladi. Uning fikricha, haqiqiy ta’lim tajriba va uni qayta ishlash orqali amalga oshadi.

Ikkinchi bosqich reflektiv amaliyot konsepsiyasining nazariy jihatdan asoslanishi bo‘lib, XX asr o‘rtalari — 80-yillarni qamrab oladi. D.A.Shonning “Reflektiv amaliyotchi: professionallar amalda qanday fikrlaydi” asari bu sohadagi fundamental ishlardan biri hisoblanadi. Shon harakatdagi refleksiya va harakat haqidagi refleksiya tushunchalarini kiritdi. Uning konsepsiyasiga ko‘ra, professional o‘z faoliyati jarayonida ham, undan keyin ham refleksiya qilish orqali o‘z mahoratini rivojlantiradi.

Uchinchi bosqich reflektiv modellarning ishlab chiqilishi bo‘lib, 80-yillar oxiri 90-yillarda amalga oshdi. Bu davrda D.Kolb, G.Gibbs, K.Jons kabi olimlar reflektiv amaliyotning turli modellarini taklif qildilar. Kolbning tajribaviy o‘rganish modeli to‘rt bosqichdan iborat: aniq tajriba, reflektiv kuzatish, mavhum kontseptuallashtirish va faol eksperimentatsiya. Gibbs sikli olti bosqichni o‘z ichiga oladi: tavsif, his-tuyg‘ular, baholash, tahlil, xulosa va harakat rejasi.

To‘rtinchi bosqich reflektiv amaliyotning ta’lim tizimiga keng joriy etilishi bo‘lib, XXI asrda faollashdi. Hozirgi bosqichda refleksiya nafaqat nazariy konsepsiya, balki amaliy pedagogik vosita sifatida qaralmoqda. T.Farrell besh bosqichli refleksiya modelini taklif qildi: falsafa, tamoyillar, nazariya, amaliyot va amaliyotdan tashqari bosqichlari.

Reflektiv amaliyotning asosiy modellari

Kolbning tajribaviy o‘rganish modeli to‘rt bosqichli sikldan iborat bo‘lib, u tajriba va uni qayta ishlash jarayonini ifodalaydi. Ushbu model reflektiv amaliyotning amaliyotga yo‘naltirilganligini va kelajakdagi harakatlarni rejalashtirishdagi ahamiyatini ta’kidlaydi.

Gibbs modeli Kolb modeli asosida qurilgan bo‘lib, olti bosqichli tuzilishga ega. Ushbu model reflektiv tahlilning hissiy jihatlariga alohida e’tibor beradi. Gibbs siklining bosqichlari voqeani batafsil tavsiflash, voqea davomidagi his-tuyg‘ular va fikrlar, tajribaning ijobiy va salbiy jihatlarini baholash, vaziyatni tahlil qilish, xulosa chiqarish va harakat rejasini tuzishdan iborat. Gibbs modeli ayniqsa kasbiy amaliyotdagi kutilmagan vaziyatlarni tahlil qilishda samarali hisoblanadi.

K.Jons tomonidan ishlab chiqilgan model beshta asosiy toifaga asoslangan: estetika, shaxsiy bilish, axloq, empirik bilish va reflektivlik. Jonning modeli chuqurroq tahlilni talab qiladi va Carperning bilishning fundamental usullari nazariyasiga asoslanadi. Ushbu modelda refleksiya jarayonida shaxsiy qadriyatlar, axloqiy tamoyillar va kasbiy bilimlarning uyg‘unlashuvi muhim ahamiyat kasb etadi.

Kortagen va Vasalos refleksiyaning piyoz modelini taklif qildilar. Ushbu modelda refleksiya turli darajalarda amalga oshiriladi: atrof-muhit, xatti-harakatlar, kompetensiyalar, e’tiqodlar, qadriyatlar, o‘zlikni anglash va misiya. Ushbu model reflektiv amaliyotning ichki, shaxsiy jihatlariga alohida e'tibor qaratadi va pedagogning kasbiy o‘sishida chuqur o‘zgarishlarni ta’minlaydi.

Rolfe va boshqalar reflektiv amaliyotning uchta asosiy savolga asoslangan modelini taklif qildilar: nima, nima bo‘ldi va endi nima. Ushbu model boshlang‘ich darajadagi refleksiya uchun qulay bo‘lib, amaliyotchilarni reflektiv yo‘nalishga boshlashda samarali hisoblanadi.

Mahalliy pedagogik tadqiqotlarda reflektiv amaliyot

O‘zbekiston pedagogik tadqiqotlarida refleksiya konsepsiyasi nisbatan yaqin yillarda faol o‘rganila boshlangan. Mahalliy olimlarning tadqiqotlarida refleksiya pedagogik faoliyatning muhim komponenti sifatida qaralib, uning kasbiy kompetensiyani shakllantirishdagi o‘rni alohida ta’kidlanadi.

Yunusova N.X. refleksiyani zamonaviy o‘qituvchining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish omili sifatida baholaydi. G‘ofurova N. esa pedagogik refleksiyaning zamonaviy ta’limdagi ahamiyatini ilmiy asoslab berdi. Raximova X. tomonidan olib borilgan tadqiqotda reflektiv amaliyotning o‘qituvchilarning kasbiy rivojlanishidagi o‘rni o‘rganilgan. Ushbu tadqiqotda Gibbs modeli, Kortagen va Vasalosning piyoz modeli hamda Farrellning amaliyotda refleksiya asosi modellari tahlil qilingan.

O‘zbekiston oliy ta’lim muassasalarida bo‘lajak pedagog kadrlarning refleksiv qobiliyatlarini shakllantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bu qobiliyatlar ta’lim-tarbiya jarayonida yuzaga keladigan muammoli vaziyatlarda to‘g‘ri qaror qabul qilish, bolalar bilan samarali muloqot olib borish, o‘z faoliyatini o‘zgartirish va yangilashga tayyor bo‘lishda asosiy rol o‘ynaydi.

O‘zbekistonning ayrim oliy ta’lim muassasalarida reflektiv daftarlar joriy etilgan, psixologik treninglar asosida o‘zini anglash va o‘zini baholash bo‘yicha mashg‘ulotlar yo‘lga qo‘yilgan. Biroq mahalliy tajribada xorijiy ilg‘or amaliyotlar bilan chuqur integratsiya hali yetarli darajada emasligi, ushbu elementlarning yagona tizimga birlashtirilmaganligi qayd etiladi.

Raximova G.E. tomonidan olib borilgan tadqiqotda pedagog shaxsining professional o‘zini anglash darajasi va kasbiy faoliyatdagi ahamiyati yoritilgan. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, o‘zini anglamagan pedagog professional inqirozga duch kelish ehtimoli yugori bo‘ladi. Shu sababli refleksiya faqat metod emas, balki kasbiy yetuklikni belgilovchi asosiy shaxsiy sifatdir.

Reflektiv amaliyotning zamonaviy ta’lim tizimidagi ahamiyati

Zamonaviy pedagogikada refleksiyaning uchta asosiy turi ajratiladi. Harakat uchun refleksiya faoliyatni boshlashdan oldin rejalashtirish va tayyorgarlik ko‘rish bosqichidir. Harakatdagi refleksiya faoliyat jarayonida amalga oshiriladigan, ongli qarorlar qabul qilish va o‘zgarishlarga moslashishni ta'minlaydigan refleksiyadir. Harakat haqidagi refleksiya faoliyat tugagandan so‘ng o‘tkaziladigan chuqur tahlil va xulosa chiqarish bosqichidir. Ushbu uchala tur o‘zaro bog‘liq bo‘lib, pedagogning kasbiy o‘sishida birgalikda muhim ahamiyat kasb etadi.

Reflektiv amaliyot pedagog va o‘quvchilar uchun bir qator muhim afzalliklarga ega. U shaxsni chuqurroq bilishga, o‘z qobiliyatlari, kuchli va zaif tomonlari haqida yangi tushunchalar berishga yordam beradi. Tajriba asosida usullarni takomillashtirish va samarali strategiyalarni aniqlash imkonini beradi. O‘tmishdagi harakatlar natijalarini tanqidiy tahlil qilish asosida yanada samarali qarorlar qabul qilishga ko‘maklashadi. Doimiy o‘rganish va kasbiy rivojlanishni rag‘batlantiradi hamda ta’lim jarayonini doimiy takomillashtirishga xizmat qiladi.

Reflektiv amaliyot metakognitiv ko‘nikmalarni rivojlantirishning samarali vositasi hisoblanadi. Metakognitsiya bilim ustidan nazorat qilish, uni anglash va strategik boshqarish qobiliyatidir. Refleksiya orqali o‘quvchilar o‘z bilish jarayonlarini anglash, ularni boshqarish va baholash ko‘nikmalarini rivojlantiradilar. Bu esa o‘z navbatida ularning o‘z-o‘zini boshqarish va mustaqil o‘rganish qobiliyatlarini oshiradi.

Xorijiy va mahalliy tajribalarni taqqoslash shuni ko‘rsatadiki, rivojlangan davlatlarda refleksiya o‘qituvchilar tayyorlashning ajralmas qismi bo‘lib, reflektiv kundaliklar, pedagogik portfoliolar, mentorlik suhbatlari va tanqidiy vaziyatlar tahlili orqali reflektiv ko‘nikmalar shakllantiriladi. Finlyandiya, AQSh, Buyuk Britaniya, Germaniya kabi mamlakatlarda bu amaliyot tizimli ravishda yo‘lga qo‘yilgan. O‘zbekiston ta’lim tizimida ham so‘nggi yillarda refleksiv yondashuvga nisbatan e’tibor ortmoqda, ammo bu sohadagi ishlar hali yetarlicha tizimlashtirilmagan.

XULOSA

Reflektiv amaliyot konsepsiyasi XX asr boshidan boshlab uzoq rivojlanish bosqichini bosib o‘tdi. J.Dyuning falsafiy-pedagogik qarashlaridan D.A.Shonning reflektiv amaliyotchi konsepsiyasiga, so‘ngra turli reflektiv modellar ishlab chiqilishigacha bo‘lgan yo‘lni bosib o‘tdi. Kolb, Gibbs, Johns, Kortagen va Vasalos, Farrell kabi olimlarning modellari refleksiyaning turli jihatlarini aks ettiradi. Ularning umumiy xususiyati tajribani anglash, tahlil qilish va kelajakdagi harakatlarni rejalashtirishga qaratilgan sikl yoki bosqichma-bosqich tuzilishdir.

Zamonaviy ta’lim tizimida reflektiv amaliyot pedagog va o‘quvchilarda metakognitiv ko‘nikmalarni

rivojlantirish vositasi, kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish va takomillashtirish omili, ta’lim jarayonini doimiy takomillashtirish mexanizmi hamda o‘z-o‘zini baholash va o‘zini rivojlantirishga undovchi vosita sifatida muhim ahamiyat kasb etadi.

Xorijiy va mahalliy tajribalarni taqqoslash shuni ko‘rsatadiki, rivojlangan davlatlarda refleksiya pedagog kadrlarning kasbiy o‘sishining ajralmas qismi bo‘lsa, O‘zbekiston ta’lim tizimida bu yo‘nalishdagi ishlar bosqichma-bosqich joriy etilmoqda. Mahalliy tajribada reflektiv elementlar mavjud bo‘lsada, ular yagona tizimga birlashtirilmagan. Shu bois, xorijiy ilg‘or tajribalarni moslashtirgan holda refleksiya madaniyatini shakllantirishga xizmat qiluvchi kompleks yondashuvlar ishlab chiqilishi lozim.

Zamonaviy ta’lim tizimining asosiy vazifalaridan biri o‘qituvchi va o‘quvchilarda reflektiv fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishdir. Bu esa ularning doimiy o‘z ustida ishlashga, o‘z faoliyatini tanqidiy baholashga va uni takomillashtirishga bo‘lgan intilishini kuchaytiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Shaxs rivojlanishida universal o‘quv faoliyatlarining aks ettiruvchi va konstruktiv xususiyatlari // Qo‘qon davlat pedagogika instituti ilmiy xabarlari. 2025.
2. Guy C. Reflective Models // The Art of Medical Communication. Taylor & Francis, 2023.
3. Good practice guide: Reflective practice. Education Workforce Council, 2023.
4. Cirocki A., Wyatt M., Gao X. Eds. Developing Reflective TESOL Practitioners Through Teacher Education: Insights From Asia. Singapore: Springer Nature, 2024.
5. Omanova N.Sh. Bo‘lajak tarbiyachilarning refleksiv qobiliyatlarini shakllantirishga oid ilg‘or xorijiy va mahalliy tajribalar tahlili // Qo‘qon davlat pedagogika instituti ilmiy xabarlari. 2025, №6.
6. Gibbs, Mezirow's, and Johns' Models of Reflective Practice. Grand Canyon University, Center for Innovation in Research and Teaching.
7. QA1 - Developing a culture of learning through reflective practice. ACECQA, 2025.
8. Raximova X. O‘qituvchining kasbiy kompetensiyasini shakllantirishda reflektiv amaliyotni o‘tkazish modellarining o‘rni // ACTA NUUz. 2025, 1(1.2), 205–207.
9. Yunusova N.X. Refleksiya — zamonaviy o‘qituvchining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish omili // O‘zDJTU ilmiy jurnali. 2021, №2.
10. G‘ofurova N. Pedagogik refleksiya va uning zamonaviy ta’limda ahamiyati // Ta’lim va taraqqiyot tahlili ilmiy jurnali. 2022.